



OROL DENGIZINI QURISHI VA BUGUNGI KUNDAGI XOLATINI SAQLASH MASALALARI

NamDPI, Texnologik ta'lim yo'nalishi

Talaba Qo'ziyeva Mashxura Shavkatjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sayyoradagi eng falokatli voqealardan biri Orol dengizi suvining keskin kamayib ketish sabablari va bugungi xolatini saqlash masalalari keltirilgan.

Аннотация: В данной статье представлены причины резкого сокращения воды Аральского моря, одного из самых катастрофических событий на планете, и вопросы сохранения его современного состояния.

Abstract: This article presents the reasons for the sharp reduction in the water of the Aral Sea, one of the most catastrophic events on the planet, and the issues of preserving its current state.

Kalit so'zlar: dengizi qurishi, ekologik muammo, kemalar qabristoni, yerlarni o'zlashtirish, Orol sho'rlashishi, islohotlar.

Ключевые слова: высыхание моря, экологическая проблема, кладбище кораблей, освоение земель, засоление островов, реформы.

Key words: sea drying, environmental problem, ship graveyard, land development, island salinization, reforms.

Orol dengizida ilgari vaqtda baliqchilik, ovchilik, transport va erkratsion maqsadlarda foydalanilar edi. O'tagn asrning 90 - yillarigacha dengizda baliq ovlangan bo'lib, Aralsk va Mo'ynoq shaharlari, bu shaharlar o'rtasida ko'p sonli baliq ovlash xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan. Amudaryo deltasida, Anan posyolkasida, Uyali va Uzunqir orollarida baliq zavodlari ishlab turgan. Tabiat va insoniyat o'rtasidagi munosabatlar ma'lum qonuniyatlar asosida o'rnatilgan bo'lib, uning buzilishi ertami - kechmi ekologik falokatlarga olib kelishi mumkin. Tabiiy resurslardan pala - partish foydalanish iqlim va tuproq o'zgarishiga olib keladi. Markaziy Osiyoda sug'oriladigan dehqonchilikda suvdan asossiz va noo'rin foydalanish natijasida "Orol va orol bo'yi" muammosi vujudga keldi. Natijada, yerning qayta sho'rlashishi va suvning yaroqsizligi ko'payib bormoqda. Bu esa



o‘z navbatida tabiat, hayvonot dunyosiga hatto insoniyatga ham ta‘sirni ko‘rsatmay qolmadi.

Antik davr manbalariga nazar tashlasak, unda Orol dengizi haqida deyarli ma‘lumot yo‘q.

Shunga qaramay, tarixchi, olimlar u haqida qisqacha ma‘lumotlar keltirib berganlar. Yunon olimi Ptolemey (II asr) va Marsellin (IV asr) asarlarida Oks ko‘li yoki botqoqligi deb aytganlarini uchratish mumkin. Lekin Oks ko‘lining Orol yoki Sariqamish botig‘i ekanligi aytib o‘tilmagan. Xitoy manbalarida Orol dengizi "Shimoliy o‘tingiz" deb atalgan va ularda alanlar, turklar o‘lkasida daryolar tog‘lardan shimolga oqishi hamda qandaydir Shimoliy dengizga quyilishi aytilgan.

X asrda yashab ijod qilgan Ibn Rustam va uning zamondoshi Al - Masudiy asarlarida esa Orol dengizi "Jurjoniya ko‘li" deb olinadi. Ular Jurjoniya ko‘liga ikkita katta daryo Jayhun (Amudaryo) va Shosh (Sirdaryo) daryolari quyilishini uning qirg‘oqlari yaqinida Jurjoniya (Ko‘hna Urganch) shahri joylashganligini yozib qoldirishgan. X - XI asrda yashab ijod qilgan vatandoshimiz Abu Rayxon Beruniy o‘z asarlarida keltirilgan ma‘lumotlarda qadimda, Amudaryo Qoraqum orqali Kaspiy dengiziga oqqanligi va so‘ng u shimolga burilib, Kiz dengizi (Sariqamish botig‘i) tomonga, bir qismi esa, Xorazm dengizi (Orol dengizi) tomonga oqqanligi aytib o‘tilgan. XII asr boshida Bakron o‘zining "Jahonnoma" asarida Orol dengizini Sirdaryoning quyi qismida joylashgan Jand shahri nomiga bog‘lab, "Jand" deb atalganligi ma‘lum. XVI asr oxiri va XVII asr boshida yaratilgan "Kniga Bolshamu Cherteju" kitobida Orol dengizi "Ko‘k dengiz" nomi bilan atalgan. Uning geografik o‘rni ko‘rsatilgan.

Orol dengizini birinchi marta A.I.Butakov 1848 - 49 - yillarda tadqiq etgan va uni xaritaga kiritgan. Orol dengizi – dengiz emas ichki berk ko‘l hisoblanadi. Orol dengizi qit‘a ichkarisida joylashgan suv chiqib ketmaydi va ko‘p hislatlarga ega suv havzasidir. U O‘zbekiston va Qozog‘iston chegarasida bo‘lib, ko‘p qismi O‘zbekistonda joylashgan. Orol dengizining umumiy maydoni o‘tgan asrning 60 - yillarigacha 68.0 ming km² ni tashkil etgan , atrofi cho‘l zonasi bilan qoplangan. Kattaligi jihatidan dunyoda to‘rtinchi o‘rinda, Yevroosiyo materigida esa ikkinchi o‘rinda turadi. Havzasining maydoni katta bo‘lgani



uchun dengiz deya atalgan. Dengiz shimoli - sharqdan janubi - g'arbga cho'zilgan bo'lib, uzunligi 428 km, eng keng joyi esa 235 km bo'lgan.

Orol dengizini Amudaryo va Sirdaryolar to'ldirib turgan. Daryolar yiliga dengizga 56 km³ suv quyib turgan. Mahalliy yog'inlar hisobida esa 5 km³ suv Orol dengiziga qo'shilgan. Ilmiy manbalarga ko'ra, bir vaqtlar Amudaryo va Sirdaryo Orol dengiziga quyilishi dan oldin Kaspiy dengiziga quyilgan.

Orol dengiz yuqori plitsenda Yer po'stining egilgan yeridagi bo'yoqda hosil bo'lgan. Tubining relyefi (g'arbiy relyefini hisobga olmaganda) tekis. Orol dengizida juda ko'p yarim orol va qo'ltiqlar bo'lgan. Bulardan, Shim qo'ltiqlarida eng katta qo'ltiqlari Chemishe, Paskevich Sarichig'anoq, Perovski, janubi - sharqiy va sharqiy qig'oqlarida Tushbas, Ashshebas, Silva hisoblanadi. Amudaryo bilan Sirdaryo quyiladigan joylarida ham Ajiboy, Tog'liq, Jiltirbas qo'ltiqlari, Qulonli va Mo'ynoq yirik yarim orollari bo'lgan. Dengiz suvining sho'rliigi 10 - 11% ni tashkil etib, Kaspiy dengizidan keyingi o'rinda turgan. Suvdagi tuzlarning ko'p qismini osh tuzi va sulfatli magniy tuzi tashkil etgan. Suvning tarkibidagi tuz 11 milliard deb baholangan dengizida suv sathi goh ko'tarilib, goh pasayib turgan. Dengiz cho'l zonasida joylashganligi uchun uning yuzasidan yiliga 1 m dan

suv


Yillar	Suv sathi N.m	Maydoni G km ²	Suv sig'imi W km ³
1960	53.40	68900	1063
1976	48.27	55700	730
1991	37.70	35100	302
1994	36.60	32500	250
1997	36.60	32500	250
2000	33.22	23900	167
2001	32.11	21100	142
2002	30.9	18100	119

bug'langan.

Dunyoda kattaligi bo'yicha to'rtinchi o'rinda turuvchi Orol dengizi yildan yilga kichrayib bormoqda edi. Xo'sh buning sababi nima edi? Orolga kelayotgan daryo suvlari Sovet hukumatining irrigatsiya projeklari uchun yo'naltirilganligi edi. 2009 - yilga kelib Orolning janubi - sharqiy qismi yo'q bo'lib ketgan, janubi - g'arbiy qismi esa kamayib ingichka chiziq kabi bo'lib qolgan.



1847 - yilda ruslarning dengiz kemalari Orol dengiziga kelishni boshlagan va Sirdaryo quyilish og‘zi yaqinida Araliskiy fortini tashkil qilishgan. Keyinchalik Dengizga ruslarning kelishi yana ham kuchayib ketgan. Sovet hukumati 1960 yil boshida Orolga quyiladigan Amudaryo va Sirdaryo suvlarini cho‘l zonalaridagi qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirishga qaror qilishgan. Sababi esa guruch, qovun, tarvuz, donli ekinlar va paxta yetishtirish uchun edi. Oq oltin deya atalgan paxta Sovetlar uchun asosiy eksport mahsulotiga aylana boshlagan. Har yili 20 - 60 km³ suv Orol dengiziga quyiladigan suv 60 yillar davridan boshlab qishloq xo‘jaligi yerlariga yo‘naltirilgan. Dengizning asosiy quyilish yerlari qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgandan keyin qurishni boshlagan.



1961- yildan 1970 - yilgacha dengiz sathi o‘rtacha har yili 20 sm ga kamayib borgan. 1970 - 1980 - yillarda esa 50 - 60 sm ga tushgan. 1980 - yildan boshlab bu ko‘rsatkich 80 - 90 sm ni tashkil qilgan. 60 - yildan 98 - yilgacha dengizning yuzasi 60 % ga qurib ketgan, hajmi esa 80 % ga kamayib ketgan. 60 - yilda 68 ming km² va 1100 km³ hajmlik enc katta ichki ko‘l bo‘lgan bo‘lsa, 1998 - yilda 29 ming km² va tushib qolgan edi.

Dengizga asosan, Amudaryo va Sirdaryolar quyilib turishini bilamiz. So‘nggi yillarda suv omborlari va qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerlar ko‘paygani sababli dengizga suv bormay qo‘ydi. Aholi soni ham yildan yilga ko‘payib bormoqda. O‘rta Osiyoda yiliga 2-2.5% ga oshdi. Natijada, yerlarni o‘zlashtirish oshib, ekin maydonlari kengaymoqda. Yiliga 70 - 80 ming gektar yer o‘zlashtiriladi edi. Bir gektar maydonni qishloq xo‘jaligida foydalanish uchun tayyorlash va u yerda hosil yetishtirishga hech bo‘lmaganda 10 va undan ortiq ming³ metr suv kerak bo‘ladi. Cho‘lni o‘zlashtirish uchun har yili 600 - 700 mil ba‘zan milliard³ metrgacha suv sarflanadi edi. Lekin o‘sha vaqtda sug‘oriladigan yerlar maydoni 1.8 milliondan 4.3 million gektargacha yetkazilmaganda bugun O‘zbekiston o‘zining 33 milliondan ortiq aholisini boqsa olmagan bo‘lardilar. Keyingi sababi, bu O‘zbekiston rivojlantirish bilan bog‘liq. O‘sha davrda chetga eksport kuchaygan, yirik korxonalar qurilgan, aholi ish o‘rinlari bilan ta‘minlanib mahsulot ishlab chiqarilgan.



Yerlarni o'zlashtirish natijasida aholi yashayotgan yangi punktlar barpo etilgan. Ya'ni yangi yerlar o'zlashtirilmaganda davlatning mustaqillik yillaridagi o'sishi uchun zamin yaratishda erishgan bo'lmasdik. Lekin bu insoniyatni oqlash emas. Tabiatdagi ekologik fojialarga ko'proq inson omili sabab bo'ladi. Orol dengizida suv sathining pasayishi natijasida uning atrofidagi o'lkalarda har xil tuzlar, changlar, zaxarli, kimyoviy moddalar bilan o'ta ifloslangan.

Har yili Orol dengizining qurigan qismidan 15 -75 mln tonna chang va to'zonlar ko'tarilib, juda katta maydonni ifloslaydi. Kuchli sho'rlangan maydonlar 35-70% ni tashkil etadi. Tuproqlarning sho'rlanishi hisobiga qishloq xo'jalik mahsulotlari pasayib ketdi. Bulardan O'zbekistonda-30%, Turkmanistonda-40%, Qozog'istonda-33%, Tojikistonda-19%, Qirg'izistonda-20%, pasayib ketdi. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi



sug'oriladigan maydonlarning har gektariga bir yil davomida 250 kg, ayrim hududlarida 500 kg gacha tuzli chang yog'iladi. Tuzli chang to'fonlarning kengligi 40 kmga, uzunligi 400 kmga Orol changi hatto Tyanshan va Pomir tog'lari cho'qqilaridagi muzliklarga ham yetib borib, u yerdagi muzliklarning erishini tezlashtirib yubordi. Sho'rlanish natijasida, 500 g ga yaqin yer yaroqsiz bo'lib qoldi.

Hozirda dengiz "Kemalar qabristoni" yoki "O'lik dengiz deya nom olgan.

Orolning qurishi iqlimga ham ta'sir ko'rsatib, qish juda sovuq, yoz esa juda issiq bo'lib qolgan. Orol dengizini qutqarish va uni qayta tiklash, o'z holatiga qaytarish uchun yillar davomida turli xil yechim va takliflar keltirilgan. Jumladan, qishloq xo'jaligi kanallar sig'imini oshirish, kam suv talab qilinadigan paxta navidan foydalanish, qishloq xo'jaligisiz iqtisodiyotdan foydalanib rivojlantirish, paxta uchun kamroq kimyoviy moddalardan foydalanish, paxtadan tashqari boshqa donli ekinlarni ekish, Volga va Irtish daryolardagi suvga Orol dengizining yo'naltiriladigan 30 dan 50 milliard dollarga tushadigan



mablag‘lik proyektdan foydalanib 20-30 yil ichida dengizni qayta tiklash, Kaspiy dengizidan orol dengiziga suvni trubalar orqali nasosdan foydalanilgan holda toza suvni yo‘naltirish va boshqalar. Orol atrofidagi muhit kishilar salomatligiga ham salbiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Ma‘lumotlarga qaraganda ayniqsa, Amudaryo deltasi atrofida yashovchi aholi o‘rtasida "qorin tifi" bilan kasallanish 30 barobar oshgan, bolalar o‘limi ko‘paygan, odamlarning o‘rtacha bo‘yi va yashash darajasi pasaygan.



to: X.Пайдоев / Халқ сўзи

“Xalq so‘zi”ga O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan irrigator, suv xo‘jaligi sohasining yirik mutaxassisi Ismoil Jo‘rabekov eksklyuziv intervyusida Orol haqida shunday deydi: "Qachondir kattaligi bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi o‘rinda turgan ko‘l deyarli yo‘qoldi, uning o‘rnida esa maydoni 5,5 million gektardan iborat sahro— Orolqum paydo bo‘ldi.

Shamol bu yerdan yiliga yuz million tonnagacha qum va tuzni ko‘tarib, yuzlab kilometr uchiradi. Bu, ayniqsa, Orolbo‘yida yashab kelayotgan tub aholi uchun nihoyatda og‘ir-sharoit tufayli yuzaga kelgan katta-sinovdir. Aholi, birinchi -galda, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam va ko‘makka juda -muhtoj”, dedi Ismoil Jo‘rabekov intervyu vaqtida.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham Orol dengizining qurigan bo‘yicha borib vaziyatni o‘rgandi. Mintaqamizda cho‘llanish va sho‘rlashish natijasida o‘simlik va yovvoyi hayvonlar turi kamayib ketdi. Orol dengizining qurigan tubidan millionlab tonna chang va zaharli tuzlar ko‘tarilib katta hududga tarqalar edi. Shavkat Mirziyoyev 2018 yil Munosabati tashrif chog‘ida olimlar bilan maslahatlashib, Orolda sho‘rga chidamli bo‘lgan o‘simliklarni ekish vazifasini belgilagan edi. O‘tgan



yillarda dengizning suv qurigan qismida 1 mln 524 ming gektar to‘qayzor barpo etilgan. Buning uchun saksovul qoraborog‘, qanday, cherkaz kabi cho‘l o‘simliklaridan qariyb 6 ming tonna urug‘ tayyorlanib qiyin sharoitlarda ekilgan. Bu ishlarda 4 mingdan ziyod ishchi



qatnashib 1 ming 600 dona texnika, somolyotlar jalb etilgan. Bugungi kunda ham bu murakkab, dolzarb harakat davom ettirilmoqda. Joriy yilda 100 ming gektar maydonida "yashil qoplama" barpo etish rejalashtirilgan. Bugungi kunda shundan 26 ming gektarida ish boshlangan 562 tonna urug'lar tayyorlangan. Shuningdek, 100 gektar maydonida ko'chatxonalar barpo etilmoqda. Prezidentimiz bu yerda ekologlar va o'rmon xo'jaligi mutaxassisligi bilan ham suhbatlashdi:

- Biz bu murakkab sharoitda ekish bo'yicha katta tajriba orttirdik. Bu yerga o'zim kelishimdan maqsad - endi bu ishlarni ilmiy asoslangan tarzda davom ettiramiz "- dedi Shavkat Mirziyoyev. Ilmiy izlanishlar qilib, hudud tuprog'iga mos navlar yaratish keyingi bosqichda chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. 1994-yilda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston davlatlari o'rtasida Orolni qayta tiklash to'g'risida shartnoma imzolangan.

Hozirgi imkoniyatlardan biri, Orol havzasi atrofida yig'ilgan zarur (qaytarma) suvlarni to'plagan holda dengizda qaytarishdir. Agar bu vazifa amalga oshirilsa, yiliga qo'shimcha 20 m³ suv Orol dengiziga kelib qo'shilishi mumkin.

Hulosa o'rnida shuni aytish joizki, global isish kuchayib yog'ingarchilik kamayayotgan bugungi asrimizda orol dengizini qutqarish tobora imkonsiz bo'lib bormoqda. Bunday sharoitda yagona yo'l-borini saqlab qolish, fojia ta'sirini kamaytirish, odamlar hayotini osonlashtirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. 1992 yil
2. Orol dengizi tarix. Maqola. Ixtiyorbek Norov, Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi.
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi
4. <https://ndpi.uz/uz/2020/06/10/11294/>

Email: kuzievamashura262@gmail.com

Telefon raqam: +998 33 428 28 04